

Sadullayev Shamshod Hojiqurbonovich
Buxoro viloyati Buxoro tuman
maktabgacha va maktab ta'limi bo'lim boshlig'i

TARIX FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TARIXIY MANBALARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda tarixiy manbalarning o'rni yoritilgan. Tarixiy manbalar bilan ishlash orqali o'qituvchining tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, tadqiqot olib borish va darsda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish salohiyati rivojlanadi. Maqolada manbaviy yondashuvning metodik afzalliklari, o'qituvchining kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari hamda amaliy tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy manba, kasbiy kompetensiya, tarix o'qituvchisi, tahlil, metodika, zamonaviy ta'lim, yondashuv, metod, salohiyat, voqea.

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В ПОВЫШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Аннотация. В статье рассматривается роль исторических источников в повышении профессиональной компетентности учителя истории. Работа с историческими источниками развивает у учителя способность критически мыслить, анализировать, проводить исследования и использовать современные методические подходы на уроках. В статье показаны методические преимущества источниковедческого подхода, его возможности для развития компетенций учителя и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: исторический источник, профессиональная компетентность, учитель истории, анализ, методология, современное образование, подход, метод, потенциал, событие.

THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF HISTORY TEACHERS

Annotation. This article examines the role of historical sources in enhancing the professional competence of history teachers. Working with historical sources develops teachers' abilities to think critically, analyze, conduct research, and utilize modern methodological approaches in the classroom. The article demonstrates the methodological advantages of the source study approach, its potential for developing teacher competencies, and provides practical recommendations.

Key words: historical source, professional competence, history teacher, analysis, methodology, modern education, approach, method, potential, event.

Zamonaviy ta'lim jarayonida fanning mohiyatini o'quvchiga nafaqat faktlar asosida, balki tahliliy yondashuv orqali chuqur anglatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarix fanida bu jarayon o'tmishni tanqidiy baholash, tarixiy tafakkurni shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Bu vazifani bajarishda tarix o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi va tarixiy manbalar bilan ishlash malakasi yetakchi o'rin tutadi.

Tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi esa shunchaki bilimga emas, balki manbalar bilan ishlash, tahlil qilish va ularni o'quvchilarga tushunarli etkazish mahoratiga bog'liq.

Tarixiy manbalar — tarixiy voqealarning bevosita yoki bilvosita guvohlari boʻlgan hujjatlar, ogʻzaki rivoyatlar, moddiy yodgorliklar, vizual tasvirlar, xaritalar, fotosuratlar va boshqalardir.

Ular quyidagi pedagogik imkoniyatlarni beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi

Tadqiqot koʻnikmalarini shakllantiradi

Tarixiy tafakkurni rivojlantiradi

Oʻquvchini faollikka undaydi

Fanlararo integratsiyani taʼminlaydi

Tarixiy manbalar asosida oʻquvchilarga savol berish, voqealarni rekonstruksiya qilish, muqobil fikrlar bildirish orqali interaktiv taʼlim muhitini yaratish mumkin.

Kasbiy kompetensiya va tarixiy manbalar bilan ishlash.

Tarix oʻqituvchisining kasbiy kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

| № | Kompetensiya turi | Tarixiy manba orqali rivojlanish yoʻli |
|---|-------------------------------|--|
| 1 | Fan boʻyicha bilim | Turli davr manbalarini tahlil qilish orqali |
| 2 | Metodik kompetensiya | Manba asosida dars dizayni yaratish orqali |
| 3 | Axborot-tahliliy kompetensiya | Manbalarni solishtirish, baholash orqali |
| 4 | Kommunikativ kompetensiya | Manbadagi maʼlumotni tushunarli ifodalash orqali |
| 5 | Tadqiqot olib borish | Ilmiy izlanishlarda manbadan foydalanish orqali |

Oʻqituvchilar tarixiy manbalarni darsga jalb qilganida, ular nafaqat oʻquvchilarni faollashtiradi, balki oʻzlarining kasbiy mahorati va amaliy koʻnikmalarini ham takomillashtiradi.

Metodik yondashuvlar

Tarixiy manbalar bilan ishlashni oʻrganish uchun oʻqituvchilarga quyidagi metodik vositalar foydalidir.

1. Manba asosida savol-javob – manbaga tayangan holda ochiq yoki tanlovli savollar ishlab chiqish.

2. Tarixiy rekonstruksiya – voqealar rivojini manba asosida qayta tiklash.

3. Manbalarni solishtirish – turli nuqtai nazarlarni taqqoslash orqali baho berish.

4. “Manbani oʻqi – voqeani tahlil qil” metodi – oʻquvchini fikrlashga undaydi.

5. Case study (keys usuli) – real tarixiy holatni manba asosida tahlil qilish.

Tarixiy manbalardan samarali foydalanish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

Oʻqituvchilar uchun malaka oshirish kurslarida manbaviy yondashuv alohida modul sifatida kiritilishi lozim. Darslik va qoʻllanmalarda autentik tarixiy manbalar (skan hujjatlar, xaritalar, suratlar) hajmi oshirilishi kerak. Elektron platformalarda interaktiv tarixiy manbalar bazasi yaratilishi foydali boʻladi. Har bir oʻqituvchi oʻz darsida kamida bir manba asosida faol topshiriq qoʻllashga odatlanishi kerak.

Tarixiy manbalarni oʻrganish va ularni oʻquv jarayoniga tatbiq etish, tarix fani oʻqituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda muhim oʻrin tutadi. Bu jarayon oʻqituvchidan nafaqat chuqur bilimni, balki pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlarni qoʻllashni ham talab etadi. Shunday ekan, tarixiy manbalar — bu nafaqat oʻtmishning guvohi, balki zamonaviy taʼlimning samarali vositasidir.

Tarixiy manba — oʻtmishda sodir boʻlgan voqelik haqida bevosita yoki bilvosita axborot beruvchi har qanday hujjat, obʻekt, guvohlik yoki tasvirdir. Ular quyidagilarga boʻlinadi.

Yozma manbalar - hujjatlar, xatlar, solnomalar, tarixiy asarlar.

Ogʻzaki manbalar - xalq ogʻzaki ijodi, guvohlar soʻzlari.

Moddiy manbalar- arxeologik topilmalar, yodgorliklar.

Vizual manbalar- suratlar, xaritalar, rasmlar, filmlar.

Tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi

Tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi – bu ularning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuasidan iborat bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Fanga oid bilimlar – tarixiy voqealar, hodisa va shaxslarni chuqur bilish.

Metodik kompetensiya – tarixni o'qitish metodikalarini qo'llay olish.

Axborot-tahliliy kompetensiya – tarixiy manbalarni tahlil qila olish.

Kommunikativ kompetensiya – tarixiy mazmuni izchil va tushunarli etkazish.

Tadqiqot kompetensiyasi – tarixiy ma'lumotlarga asoslanib ilmiy izlanish olib borish.

Tarixiy manbalar kasbiy kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida

Tarixiy manbalar tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Tanqidiy tafakkurni shakllantirish

Manbalarni o'rganish o'qituvchini faqat faktlarni yod olish emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, baholashga o'rgatadi.

2. O'quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga tayyorgarlik

O'qituvchi o'zi manba bilan ishlashni bilmas ekan, o'quvchida bu kompetensiyani shakllantira olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi tarixiy manbani darsga to'g'ri jalb qila olishi kerak.

3. Integrativ yondashuvlarni qo'llash

Manbalar yordamida tarix boshqa fanlar (adabiyot, geografiya, san'at) bilan integratsiyalashgan holda o'rgatiladi.

4. Amaliy o'qitish imkoniyatini yaratish.

Manbaga tayangan o'qitish darsni faollashtiradi. Bu o'qituvchining innovatsion metodlarni qo'llash kompetensiyasini ham oshiradi.

5. O'qituvchining tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirish

Manbalar asosida kichik tadqiqotlar, loyiha ishlari bajarilishi o'qituvchining ilmiy izlanishga qiziqishini oshiradi.

Tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda tarixiy manbalar. Asosiy metodik vosita, kasbiy rivojlanish manbai, o'quvchilar bilan ishlashda samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarida manba tahlili metodikasiga alohida e'tibor qaratish. Tarix darsliklarida manbaviy materiallar ulushini oshirish. Interaktiv metodlar (klaster, Venn diagrammasi, zamonaviy texnologiyalar) orqali manbani tahlil qilishni o'rgatish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, elektron platformalar, AR texnologiyali vositalar yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". Toshkent. O'zbekiston. 2018. B-497.

2. Karimov I.A. Tarixiy xotira — kelajakka yo'l. T.: O'zbekiston, 1998.

3. Mahmudov E. Tarixshunoslik asoslari. T.: Sharq, 2017.

4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. M.: Pedagogika, 1991.

5. Wineburg, S. (2001). Historical Thinking and Other Unnatural Acts. Temple University Press.

6. Ahmadov O.Sh. XIX asr oxiri XX asr 30 – yillarida Buxoro jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik fikrlar taraqqiyoti Buxoro – 2025. 227 bet